

## **GOLDEN FISH BALIQCHILIK KLASTERI SHAROITIDA QAFAS MOSLAMALARIDA BALIQ YETISHTIRISH TAHLILI**

*Qaxramonov B.A.,*

*[b.kaxramanov@mail.ru](mailto:b.kaxramanov@mail.ru)*

*Zikriyoyev A.I.,*

*[Alixonzikriyoyev30@gmail.com](mailto:Alixonzikriyoyev30@gmail.com)*

Golden Fish baliqchilik klasteri sharoitida qafas moslamalaridan foydalangan holda baliqlar yetishtirish mavzusida gap borar ekan, avvalambor, Golden Fish baliqchilik klasteri xususida so‘z yuritmoqchimiz. Yurtimizda biznesga, tadbirkorlikka e’tibor oshgandan oshib boryapti va bu hol o‘z ishini ochgan va yo‘lga qo‘yib olganlar faoliyatida tobora bo‘y ko‘rsatmoqda. Hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik sohasiga qaratilayotgan e’tibor qay tarzda amaliy ishlarda namoyon bo‘layotganiga guvoh bo‘lish uchun Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanida joylashgan Gold Fish Agro klasteri misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin. Baliqchilikka ixtisoslashgan Gold Fish Agro klasteri asoschisi Abror Narziyev hisoblanadi. Bozorda 2008 yilda paydo bo‘lgan Golden Fish baliqlarni, xususan, mahalliy kenglikda sara navlarni yetishtirish ustida tinimsiz ishlab kelmoqda. Bu jihat kompaniyani raqib korxonalar orasidan ajratib turadi hamda xaridorlarga hamyonbop narxlarda mazali ta’m va foydadan bahramand bo‘lish imkonini beradi. Kompaniyaning taraqqiy etishida yetishtiriladigan va tutiladigan baliqni to‘g‘ri hududiy taqsimlash katta ahamiyat kasb etdi. Masalan, «Tuyabug‘uz» suv omborining (Toshkent dengizi) suv sathida va Golden Fish dam olish maskanida mahalliy baliq turlari – do‘ngpesanha, sazan va boshqalarni ovlaydilar. O‘rtachirchiq tumanining «O‘rta-saroy» QFYda esa inkubatsion korxona joylashgan bo‘lib, bu yerda bakrabaliqlar yetishtiriladi. Bo‘stonliq tumanining «Chimboylik» QFYda gulmohi va lososni yetishtirish bo‘yicha qafasli baliqchilik xo‘jaligi joylashgan. Qafasli uslub – baliq yetishtirishning eng samarali va kam harajatli, barcha zamonaviy talablarga javob beradigan usulidir. U Golden

Fish kompaniyasining o‘z kuchi bilan ishlab chiqarish korxonasida buniyod etilgan. Sotuv uchun yetishtiraladigan baliqning (gulmohi, bakrabaliq, losos) hajmi 1300 tonnani, baliq filesining yillik ishlab chiqarilishi – 30 tonnani, dudlangan baliq – 30 tonnani, qora ikra – 12 tonnani tashkil qiladi. Rejalashtirilgan eksport hajmi – 5 mln AQSh dollariga teng. Yurtimizda baliqchilik, ayniqsa, keyingi yillarda rivojlanib boryapti. Hududlarda sun‘iy ko‘llar ko‘payib, baliqchilik xo‘jaliklari soni ortib bormoqda. Tarmoqqa yangicha texnologiyalar kirib kelyapti. Ayniqsa, intensiv usulda baliq yetishtirish samarali natija bermoqda. Bundan olinadigan yuqori hosildorlikni oddiy ko‘llarda uddalash qiyin. Buning ustiga, intensiv usulda baliq etishtirish uchun katta maydonlar talab etilmaydi. Kichik, ixchamgina joyga o‘rnataladigan sun‘iy hovuzdan ham yaxshigina hosil olsa bo‘ladi. Shu bois, fermerlarimiz baliq etishtirishning intensiv usulidan keng foydalanyapti. Yopiq suv aylanish tizimi, intensiv kichik suv havzalari, qafas va “sholi+baliq” usullarida etishtirilgan baliqlar inson salomatligi uchun foydali ekani ham e’tirof etilmoqda. Qafaslarga o‘xshagan moslamalardan foydalanish dastavval Osiyo mamlakatlarida ikki asr ilgari boshlangan. O‘sha davr baliqchilari baliqlarni saqlashda va suvdan chiqarmasdan turib qisqa masofaga tashishda turli qafas moslamalaridan foydalanishgan. Qafas baliqchiligi jadal rivojlanib borishining asosiy sabablaridan biri bu yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda har bir metr kub suvlikdan yuqori hajimda mahsulot olish hisoblanadi. Qafas moslamalari yordamida baliqlarni nafaqat hovuzlarda, balki ko‘llarda, daryolarda, suv omborlarida, dengiz va okeanlarning qirg‘oqoldi va ochiq qismlarida yetishtirish mumkin. Baliq yetishtirishda qafas usulidan keng foydalanish, asosan, dastlab Xitoyda qo‘llanilgan. O‘zbekistonda baliqchilik tarmog‘i salohiyatini oshirish maqsadida “2015 yilda respublikaning baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirish va baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar Dasturi” qabul qilingan. Shu jumladan, Gold Fish baliqchilik klasterida ham baliq chavoqlarini yetishtirishga ixtisoslashgan, shu bilan birga qafas usuli bilan intensiv baliq yetishtirish texnologiyasidan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilmoqda. Klasterning asosiy maqsadi —

aholini sifatli va arzon baliq mahsulotlari bilan ta'minlash hisoblanadi. Shu maqsad negizida baliqchilikni rivojlantirish uchun turli xil yangi usullar ishlab chiqilmoqda. Shu kabi usullardan biri baliqlarni qafas moslamalarida yetishtirish hisoblanadi. Klaster o‘z oldiga baliq chavoqlarini sun’iy usulda ko‘paytirish, ularni o‘stirish kabi vazifalarni qo‘ygan. Bugungi kunda agro klasterda zog‘ora, oq amur, oq do‘ngpeshona va boshqa turdagи baliqlar ko‘paytirilmoqda.

Gold Fish Agro klasterida qafas usulida baliq boqishning ahamiyatli usullaridan qilib quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- 1)Qafasda yetishtirilgan baliqni qayiq orqali sadoklarni yaxshilab bog‘lab quyilgan joydan ovlash mumkin.
- 2)Baliq ovlash ancha qulay, baliqlar o‘sishini kuzatish, oziqlantirish anchaqulay.
- 3)Har bir baliq zoti uchun alohida qafas quriladi.

Xulosa qilib aytganda, Golden Fish Agro klasterida baliq yetishtirishning eng ilg‘or va zamонавий usullaridan biri bo‘lmish, ya’ni baliqlarni qafas moslamalarida yetishtirish keng rivojlanib bormoqda. Bundan tashqari, ushbu usulni keng miqyosda ommalashtirish uchun klaster tomonidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.